

LEV KULESHOVNING KINO SAN'ATI VA
KINOPEDAGOGIKA RIVOJIDAGI O'RNI

Maxmudov Sardor Sarvar o'g'li
beck.wockenstein@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sovet kino san'atining yirik namoyandasi Lev Vladimirovich Kuleshovning kinorejissura, montaj nazariyasi va professional kino ta'limi rivojiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, uning pedagogik faoliyati, VGIK kino maktabining shakllanishidagi o'rni hamda "Kuleshov effekti"ning zamonaviy kino tilidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Lev Kuleshov, VGIK, montaj, kino pedagogikasi, sovet kinosi, kinorejissura, ekran san'ati.

Аннотация: В данной статье научно анализируется вклад крупного деятеля советского киноискусства Льва Владимировича Кулешова в развитие кинорежиссуры, теории монтажа и профессионального кинообразования. Также рассматриваются его педагогическая деятельность, роль в формировании киношколы ВГИК и значение «эффекта Кулешова» в современном языке кино.

Ключевые слова: Лев Кулешов, ВГИК, монтаж, кинопедагогика, советское кино, кинорежиссура, экранное искусство.

Abstract: This article scientifically analyzes the contribution of the prominent figure of Soviet cinema, Lev Vladimirovich Kuleshov, to the development of film directing, montage theory, and professional film education. It also examines his pedagogical activity, his role in the formation of the VGIK film school, and the significance of the "Kuleshov Effect" in the modern language of cinema.

Keywords: Lev Kuleshov, VGIK, montage, film pedagogy, Soviet cinema, film directing, screen art.

XX asr boshlarida kino san'ati insoniyat madaniy tafakkurining eng muhim estetik va ijtimoiy hodisalaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan kinematografiya dastlab oddiy vizual attraksion sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, qisqa tarixiy davr ichida o'zining murakkab badiiy ifoda tizimiga ega bo'lgan mustaqil san'at turiga aylandi. Ayniqsa, tasvir, harakat, montaj va dramaturgiyaning o'zaro uyg'unlashuvi kino tilining shakllanishiga zamin yaratdi. Natijada kino nafaqat voqelikni aks ettirish vositasi, balki inson ruhiyati, ijtimoiy muammolar va davr falsafasini chuqur badiiy talqin etuvchi estetik makonga aylandi. Kino san'atining ommaviylik xususiyati uni boshqa san'at turlaridan farqli ravishda keng auditoriyaga tez va kuchli ta'sir ko'rsata olish imkonini berdi. Shu bois XX asr davomida kino jamiyatning madaniy ongini shakllantiruvchi, tarixiy xotira va

milliy identitetni ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida rivojlandi. Rejissyorlik tafakkuri, operatorlik yechimlari, aktyorlik mahorati hamda montaj ritmi orqali kino insonning estetik didini tarbiyalovchi, uning hissiy va intellektual dunyosiga ta'sir etuvchi sintez san'at darajasiga ko'tarildi. Ayniqsa, Rossiyada inqilobdan keyingi davrda kino davlat mafkurasi va ommaviy madaniyatning muhim vositasiga aylandi. Ana shu jarayonda kino san'atining nazariy va amaliy asoslarini yaratgan ijodkorlardan biri Lev Vladimirovich Kuleshov hisoblanadi.

Kuleshov kino san'atiga nafaqat rejissyor sifatida, balki pedagog va nazariyotchi sifatida ham katta hissa qo'shdi. U kino tilining asosiy vositasi sifatida montajning estetik imkoniyatlarini ilmiy asosda izohlab berdi hamda professional kino ta'limining yangi tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Kuleshovning faoliyati nafaqat sovet kino maktabi, balki jahon kinematografiyasi rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. "Kuleshovning eng muhim nazariy qarashlaridan biri shundaki, u kino san'atini teatrning oddiy davomchisi emas, balki mutlaqo yangi estetik qonuniyatlarga ega bo'lgan mustaqil san'at turi sifatida talqin qildi. Ayniqsa, uning montaj haqidagi nazariyasi kino tilining shakllanishida muhim rol o'ynadi."¹

Kuleshov va kino pedagogikasining shakllanishi

1919-yilda Moskvada tashkil etilgan davlat kino maktabi keyinchalik ВГИК nomi bilan mashhur bo'ldi. Ushbu institut dunyodagi birinchi professional kino oliygohi sifatida tarixga kirdi. Kuleshov aynan shu ta'lim muassasasida faoliyat olib borib, professional kino pedagogikasining asoslarini yaratdi. O'sha davrda kinoaktyorlarni tayyorlash asosan teatr metodlariga asoslangan edi. Biroq Kuleshov kino va teatr o'rtasidagi farqni chuqur anglab yetdi. Uning fikricha, teatr aktyori katta sahna uchun ishlasa, kino aktyori kamera uchun ishlaydi. Kamera esa eng kichik detalni ham tomoshabinga yaqinlashtiradi. Shu sababli ekran aktyori jismoniy plastika, ritm va ichki nazoratga ega bo'lishi kerak edi. Kuleshov o'z ustaxonasida talabalarni faqat aktyorlikka emas, balki kino ishlab chiqarishining barcha bosqichlariga o'rgatdi. Talabalar montaj qilish, dekoratsiya tayyorlash, yoritish va suratga olish texnikasi bilan ham shug'ullanishgan. Bu esa kino ta'limining kompleks tizimini shakllantirishga yordam berdi. Kuleshovning pedagogik qarashlari amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan. U talabalarning real ijodiy jarayonda qatnashishini eng muhim omil deb hisoblagan. Shuning uchun ham uning ustaxonasida doimiy repetitsiyalar, eksperimental mashg'ulotlar va "plyonkasiz filmlar" usulida turli mashg'ulotlar va ijodiy mashqlar qilingan. Mazkur metod keyinchalik professional kino ishlab chiqarishining samarali tizimiga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Kuleshov effekti" va montaj nazariyasi

Kuleshovning jahon kino nazariyasidagi eng mashhur ilmiy kashfiyoti "Kuleshov effekti" hisoblanadi. Ushbu tajriba kino montajining semantik mohiyatini ochib berdi. Tajriba davomida aktyorning bir xil yuz ifodasi turli tasvirlar bilan ketma-ket montaj

qilinib, tomoshabinlarda turli hissiy taassurotlar uyg‘otilgan. Mazkur tajriba kinoning ma‘no mohiyati alohida kadr ichida emas, balki kadrlar o‘rtasidagi bog‘lanishda yuzaga kelishini isbotlagan. Bu esa montajning kino tilidagi asosiy ifoda vositasi ekanligini ko‘rsatdi. Keyinchalik ushbu nazariya Sergey Eyzenshteyn va Vsevolod Pudovkin kabi mashhur rejissyorlarning ijodiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Kuleshovning montaj haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy media madaniyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Reklama, videoklip, internet kontentlari va raqamli platformalardagi vizual hikoya yaratish jarayonida montaj asosiy dramatik voqelikni ochib beruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Montaj oddiy texnik jarayon emas, balki badiiy tafakkur shakli sifatida baholadi. Unga ko‘ra, montaj yordamida vaqt va makonni boshqarish, tomoshabin hissiyotlarini yo‘naltirish hamda ekran drammatizmini yaratish yanada mukammalroq chiqishi mumkin edi.

Repetitsion metod va kino ishlab chiqarish

Kuleshov tomonidan ishlab chiqilgan repetitsion metod kino san‘ati tarixidagi eng muhim pedagogik va amaliy yangiliklardan biri hisoblanadi. Ushbu metodning mohiyati shundan iborat ediki, suratga olishdan oldin barcha sahnalar mukammal repetitsiya qilinishi lozim. Bu usul bir necha jihatdan samarali edi, chunki u nafaqat aktyorlarning ijro mahoratini oshirishga, butun kino ijod jarayonining mukammal tashkil etilishiga ham xizmat qilgan. Avvalo, oldindan repetitsiya qilish orqali aktyorlar o‘z obrazining ichki mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘lishgan, natijada ularning harakatlari, mimikasi va hissiy ifodasi tabiiy hamda ishonarli ko‘rinishga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, rejissyor aktyorlarning imkoniyatlarini amaliy jarayonda kuzatib, sahnalarni yanada mukammallashtirish, dramatik ta‘sir kuchini oshirish va montaj yechimlarini oldindan rejalashtirish imkoniga ega bo‘lgan. Mazkur metodning yana bir muhim afzalligi shundan iborat ediki, u film ishlab chiqarish jarayonida vaqt va texnik resurslarni tejashga yordam bergan. Kadrlar avval repetitsiya orqali sinovdan o‘tkazilgani sababli suratga olish vaqtida ortiqcha takroriy dubllar kamaygan, bu esa plyonka sarfini qisqartirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan. Ayniqsa, 1920–1930-yillardagi texnik va iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida bunday yondashuv sovet kinematografiyasi uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Bundan tashqari, repetitsion metod talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilgan. Kuleshov o‘z shogirdlarini faqat aktyor yoki rejissyor sifatida emas, balki kinoijodning barcha bosqichlarini tushunadigan universal mutaxassislar sifatida tayyorlashga intilgan. Shu sababli talabalar sahna qurilishi, yorug‘lik bilan ishlash, montaj tamoyillari va kamera harakatlarini ham amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganganlar. Natijada bu usul kelajakdagi professional kinematografchilarni shakllantirishda samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘lgan.

Kuleshovning “Buyuk taskin beruvchi”² filmi aynan shu metod asosida suratga

olingan va qisqa muddat ichida yakunlangan. Bu esa repetitsion metodning amaliy jihatdan qanchalik samarali ekanligini ko'rsatdi.² Bugungi zamonaviy kino ishlab chiqarishida ham rehearsal, storyboard va previzualizatsiya kabi metodlar aynan Kuleshovning repetitsion tizimiga yaqin tamoyillarga asoslanadi.

VGIK maktabining tarixiy ahamiyati

VGIK kino instituti professional kino ta'limining markaziga aylandi. Bu yerda nafaqat aktyor va rejissyorlar, balki operator, rassom, montajchi va ssenaristlar ham tayyorlangan. Kuleshovning pedagogik tizimi aynan ana shu kompleks tayyorgarlik modeliga asoslangan edi. Kuleshov institutga ko'plab iste'dodli kino arboblarni jalb qildi. U talabalarni ijodiy mustaqillikka, tajriba qilishga va kino tilini chuqur o'rganishga undadi. Natijada VGIK sovet kino san'atining eng yirik ilmiy va ijodiy markaziga aylandi. Kuleshovning fikricha, kino san'ati doimiy izlanish va tajriba talab qiladigan murakkab ijodiy jarayondir. Shu sababli u pedagogik faoliyatida talabalarning individual ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan.³

Lev Vladimirovich Kuleshov kino san'ati tarixida buyuk rejissyor, nazariyotchi va pedagog sifatida muhim o'rin egallaydi. Uning montaj nazariyasi, "Kuleshov effekti" va repetitsion metod haqidagi qarashlari jahon kino san'ati rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kuleshov tomonidan yaratilgan pedagogik tizim professional kino ta'limining asosiy modeliga aylandi. Bugungi kunda ham dunyoning ko'plab kino maktablari aynan shu metodologik tamoyillarga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, uning nazariyalari zamonaviy media madaniyatida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu sababli Kuleshov merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi kino san'ati uchun ham muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Кулешов Л.В. Основы кинорежиссуры. Москва, 1941.
2. Pudovkin V. Film Technique and Film Acting. London, 1954.
3. Monaco J. How to Read a Film. Oxford University Press, 2000.